
ISHCHI GURUHI TASHRIFI

Rishton tumanida, saylov jarayonlariga ko'rilayotgan tayorgarliklar, "Obod qishloq" dasturi doirasida olib borilayotgan ishlar hamda tumanda yangitdan qurilib mustasillikning 30 yilligi bayrami arafasida foydalanishga topshiriladigan obektlarni o'rganish maqsadida Respublika ishchi guruxi a`zolari tashrif buyurishdi. Ishchi guruh a`zolariga tuman hokimi o'rinbosarlari M. Bekmirzaeva, N. Oripov va tuman prokuraturasi xodimlari hamroxlilik qilib, saylov uchastikasi uchun mo'ljallangan va tumanda olib borilayotgan obodonlashtirish hamda qurilish ishlari bilan tanishtirdilar.

Farg'ona viloyati hokimining ishchi guruxi ahzolari, Rishton tumanda bo'lib, tumandagi mahalla fuqarolar yig`inlarining bino inshootlarining holati, moddiy texnik bazalari, "Ayollar daftari" "Yoshlar daftari" "Temir daftar"larning yuritilishi, MFYning yo'l-xaritasi hamda MFYlarda tashkillangan saylov uchastikalari va olib borilgan obodonlashtirish ishlari yuzasidan o'rganuv ishlari o'tkazdilar.

Ishchi guruh ahzolariga tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i M.Bekmirzaeva va bo'lim mutaxassislari hamroxlik qilib, mavjud 71 MFY o'rganib chiqildi.

Ishchi guruh tomonidan o'rganish vaqtida aniqlangan masalalar yuzasidan bartaraf etish bo'yicha ko'rsatma va takliflar berildi.

2021-07-27 06:22:08